
15 oktyabr – “Xalqaro qishloq ayollari kuni”

Qo'shtepa tumanida mazkur sana doirasida qishloqlarda istiqomat qiluvchi xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlar hamda madaniy-ma'rifiy, targ'ibot-tashviqot tadbirlari o'tkazilmoqda.

Jumladan, bugun “Qoraqushchi” mahallasida ham qishloq ayollari uchun tadbir tashkil etildi.

Tadbirda ishtirok etgan tuman hokimining o'rinbosari M.Yuldasheva, tuman “Oqila ayollar” harakati rahbari D.Yusupovalar opa-singillarimizni bayram bilan samimiy qutladilar. Bir piyola choy ustida tashkil etilgan tadbir davomida ishtirokchilarga bayram sovg'alari ulashildi.









2024-10-15 13:38:52